

TARIX FANLARINI O'QITISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-DIDAKTIK ASOSLARI

Xojametov Gulmurat Bekmuratovich

Nukus davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21466520>

Annotatsiya. Tezisdagi oliy ta'lim muassasalarida tarix fanlarini o'qitishda axborot-kommunikatsion texnologiyalar (AKT)dan foydalanish samaradorligini oshirishning nazariy-didaktik asoslari tahlil qilinadi. AKT tushunchasiga oid ilmiy ta'riflar qiyosiy o'rganilib, AKT yordamida hal qilinadigan ta'limiy vazifalar, AKT vositalarining klassifikatsiyasi hamda mavzu yuzasidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning natijalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsion texnologiyalar, tarix fanlari, didaktik imkoniyat, elektron o'quv-ta'lim resurslari, axborot kompetentligi, interfaollik.

Globallashuv sharoitining asosiy voqeligi – axborot texnologiyalarining shiddatli rivoji ularni ta'lim tizimiga joriy etishni taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmonida axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlari, jumladan, masofaviy, onlayn va virtual o'qitish texnologiyalarini joriy etish, onlayn kurslar uchun platformalar ishlab chiqish, aholining raqamli ko'nikmalarini rivojlantirish vazifalari belgilab berilgan [1]. Xalqaro miqyosda esa YUNESKOning “O'qituvchilarning AKT kompetentligining tarkibiy tuzilmasi” tavsiyalari bo'lajak mutaxassislarning AKT bilan ishlash malakalari hamda axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilmoqda [2].

Pedagogik manbalarda AKT tushunchasi funktsional, amaliy hamda ta'limiy nuqtai nazardan turlicha talqin qilingan. E.S.Polat tahriri ostidagi manbada AKT o'quv jarayonida kompyuter va telekommunikatsion vositalar yordamida axborotlarni izlash, yetkazish, saqlash, qayta ishlash hamda aks ettirishga qaratilgan harakatlarning tartiblangan yig'indisi sifatida izohlanadi [3]. I.G.Zaxarova esa AKTni bilimlarni uzatish va o'zlashtirishda yangi imkoniyatlar yaratadigan, o'quv-tarbiya jarayonida ta'lim hamda shaxsni har tomonlama rivojlantirish sifatini baholashda qo'llaniladigan kompyuter ilovalari majmui deb hisoblaydi [4]. Ta'riflarning qiyosiy tahlili AKT, bir tomondan, ilmiy yo'nalish (axborot resurslari bilan ishlash usul va vositalari haqidagi bilimlar tizimi), ikkinchi tomondan, axborot bilan ishlashning muayyan, aniq usuli ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot doirasida quyidagi ishchi ta'rif asoslandi: tarix fanlarini o'qitishda AKTdan foydalanish samaradorligini oshirish – funktsional imkoniyatlariga tayangan holda AKTni talabalarining tarix fanlarini samarali o'zlashtirish borasidagi didaktik talab va ehtiyojlarini yuqori darajada qondirish maqsadida ishlatishdir.

Ta'lim jarayonida AKT yordamida quyidagi ta'limiy vazifalar hal qilinadi: matnli o'quv axborotini vizual shaklda ifodalash; ko'rgazmali taqdimotlar va mavzuli interfaol plakatlar to'plamini tayyorlash; onlayn o'quv topshiriqlari (testlar, o'quv keyslari, mavzuli krossvord, rebus kabi didaktik o'yinlar)ni yaratish; muzeylar faoliyatini yorituvchi virtual ekskursiyalarni uyushtirish; onlayn va oflayn mashg'ulotlarni tashkil qilish; iSpring, MyTest, Hot Potatoes 6 kabi dasturlar yordamida ta'lim oluvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash.

AKTning didaktik imkoniyatlaridan foydalanish natijasida elektron o'quv-ta'lim resurslari (EO"TR) yaratildi. Ular sirasiga elektron o'quv-metodik majmua, interfaol

xarakterdagi darslik, virtual stendlar, imitatsion trenajyorlar, elektron lug‘at va ma’lumotnomalar, video va audio materiallar, multimedia mahsulotlari, onlayn kurslar kabilar kiradi [5]. O.M.Zagorodnikova ta’kidlaganidek, AKT zamonaviy ta’lim tizimida kasbiy bilimlarning manbai va pedagogik faoliyatning quroli sifatida namoyon bo’lmoqda [6]. Ta’lim amaliyotida AKT vositalarini texnik (kompyuter, planshet, proyektor, skaner va boshq.) hamda dasturiy (elektron o’quv adabiyotlari, imitatsion virtual trenajyorlar, test topshiriqlari, veb-vestlar, qidiruv tizimlari) vositalarga ajratuvchi klassifikatsiya keng ommalashgan [7].

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlar tahlili muammoning turli qirralari o’rganilganini ko’rsatadi. A.Yu.Suslov, M.V.Salimgareyev va Sh.S.Xammatovlar OTMda tarix fanlarini o’qitishda muammoli, loyiha va o’yin texnologiyalarini qo’llash talabalarning mantiqiy fikrlashi hamda o’quv-bilish faolligini oshirishga xizmat qilishini aniq mavzular misolida asoslagan [8]. Biroq mualliflar texnologiyalarni qo’llashning texnologik-metodik jihatlarini yetarlicha yoritmagan, vaholanki, xususiy fanlarni o’qitish metodikasida aynan shu jihatlarning ochib berilishi muhim sanaladi. L.V.Jenina va A.A.Matkinlar bo’lajak tarix o’qituvchilarini AKTdan foydalanishga tayyorlashda texnik, dasturiy, metodik hamda axborot xarakteridagi kompetentliklarni rivojlantirish vazifalarini tizimlashtirgan [9]. A.A.Voytovich tarixni o’qitishda ta’limning elektron vositalarini tizimli qo’llashning metodik shart-sharoitlari sifatida yangi materialni multimedia yordamida taqdim etish, nazorat-baholash funksiyasini avtomatlashtirish, ta’lim oluvchilarning mustaqil o’quv-bilish faoliyatini tashkil etish kabi yo’nalishlarni ko’rsatib o’tgan [10].

Amaliyot holatini o’rganish shuni ko’rsatdiki, OTM tarix fanlari o’qituvchilarining aksariyati internet resurslaridan foydalanish malakalariga ega bo’lsa-da, tayyorlanayotgan elektron taqdimotlar ko’p holatda interfaollik xususiyatiga ega emas. Bu esa o’qituvchi va talabalar o’rtasida faol muloqotning yuzaga kelmasligi, mashg’ulotlarning zerikarli kechishi hamda talabalarda fanga qiziqishning pasayishiga sabab bo’lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tarix fanlarini o’qitishda AKTdan foydalanish samaradorligini oshirish, birinchidan, AKTning funktsional hamda didaktik imkoniyatlarini o’quv fanining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlash, ikkinchidan, o’qituvchi va talabalarda AKT bilan ishlash kompetentsiyalarini maqsadli rivojlantirish, uchinchidan, interfaollikni ta’minlovchi dasturiy vositalarga tayanishni taqozo etadi. Ana shu shartlarning bajarilishi tarixiy bilimlarning ko’rgazmali, qiziqarli va puxta o’zlashtirilishini kafolatlaydi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi ““Raqamli O’zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6079-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/5030957>.
2. Структура ИКТ-компетентности учителей. Рекомендации ЮНЕСКО // <https://iite.unesco.org/pics/publications/ru/files/3214694.pdf>.
3. Новые педагогические и информационные технологии в системе образования: учеб. пособие / под ред. Е.С.Полат. – М.: Академия, 2005. – С. 36.
4. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании: учеб. пособие для студ. вузов. – 6-е изд., стер. – М.: Академия, 2010. – С. 22.
5. Инновацион таълим технологиялари / Н.А.Муслимов, М.Х.Усмонбоева, Д.М.Сайфуров, А.Б.Тўраев. – Т.: Сано-стандарт, 2015. – 70-б.

6. Загородникова О.М. Информационные технологии на уроках истории // <https://urok.1sept.ru/articles/602356>.
7. 30 примеры использования коммуникационных технологий в образовании. Современные информационно-коммуникационные технологии в обучении // <https://bolcheknig.ru/russian-language/30-primery-ispolzovaniya-kommunikacionnyh-tehnologii-v-obrazovanii>.
8. Суслов А.Ю., Салимгареев М.В., Хамматов Ш.С. Инновационные методы преподавания истории в современном вузе // Образование и наука. – 2017. – Т. 19, № 9. – С. 77–79.
9. Женина Л.В., Маткин А.А. Подготовка учителей истории к использованию ИКТ в профессиональной деятельности // Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании. – Пермь, 2005. – Вып. 1. – С. 144.
10. Войтович А.А. Методические условия системного применения информационных средств обучения при изучении истории // <http://www.academy.edu.by/component/content/article/1061.html>